

**«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI**  
**YAGONA AKSIYADORINING**  
**QARORIDAN KO‘CHIRMA**

2023 yil «6» fevral

№ 02/1

Toshkent shahri

...

...

...

«Smart bank» aksiyadorlik jamiyatiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2022 yil 24 dekabrdan «Bank faoliyatini amalga oshirish huquqini buruvchi» litzenziya berilganligi va 89-son bilan Banklarni ro‘yxatga olish davlat reyestriga kiritiganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlar” va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlarga muvofiq Bankning tashkiliy tuzilmasi va shtatlar sonini belgilash, Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash hamda Boshqaruv raisini tayinlash, shuningdek, bank boshqaruv organlari vakolatini va faoliyat yuritishini tartibga soluvchi ichki meyoriy hujjatlarni qabul qilish masalalari Yagona aksiyador vakolatidagi masalalar hisoblanadi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlar” va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun talablaridan kelib chiqib, kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan Yagona aksiyador

**qaror qiladi:**

1. «Smart bank» aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va lavozim shtatlar sonining yuqori chegarasi 200 (ikki yuz) kishi etib belgilansin.

2. «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi raisiga Yagona aksiyador tomonidan belgilangan lavozim shtatlar sonining yuqori chegarasi miqdoridan chiqmagan holda Bankning ish hajmi va yuklamasi asosida lavozim shtatlar sonini qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlash huquqi berilsin.

3. «Smart bank» aksiyadorlik jamiyatining Kuzatuv kengashi a’zoligiga ko‘rsatilgan nomzodlar o‘rnatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilganligini inobatga olib, Kuzatuv kengashi a’zolari quyidagi tarkibda 3 (uch) yil muddatga saylansin:

- Jaxongir Xoliquovich Xaydarov - «Agrobank» ATB Boshqaruv raisi o‘rinbosari;
- Erkin Sherkuziyevich Musurmanov - «Agrobank» ATB G‘aznachilik departamenti direktori;
- Gapur Bashirovich Oziyev - Malayziyadagi Xalqaro islom universitetining iqtisod kafedrasi dotsenti, PhD, mustaqil a’zo;
- Baxtovar Yusufi - haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi asosida «Agrobank» ATB IT loyihalarni boshqarish bo‘yicha maslahatchi, mustaqil a’zo;
- Nuriddin Rixsibayevich Yusupov - haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi

asosida «Agrobank» ATB loyiha menejeri, mustaqil a'zo.

4. «Smart bank» aksiyadorlik jamiyatining Boshqaruv raisligiga ko'rsatilgan nomzod Azamat Shuxratovich To'rayev o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilganligini inobatga olib, «Smart bank» aksiyadorlik jamiyatining Boshqaruv raisi lavozimiga 3 (uch) yil muddatga tayinlansin.

5. «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi raisi zimmasiga A.SH.To'rayev bilan belgilangan tartibda lavozim vazifalarini bajarishga kirishish yuzasidan mehnat shartnomasi imzolash yuklatilsin.

6. «Smart bank» aksiyadorlik jamiyatining quyida keltirib o'tilgan ichki meyoriy hujjatlari mos ravishda 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9- va 10-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin:

- «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadori to‘g‘risidagi nizom»;
- «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizom»;
- «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizom»;
- «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati Taftishchisi to‘g‘risidagi nizom»;
- «Smart bank» aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosati»;
- «Smart bank» aksiyadorlik jamiyatining dividend siyosati»;
- «Smart bank» aksiyadorlik jamiyatining korporativ boshqaruv kodeksi»;
- «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati ichki nazorat organlarining bank boshqaruv organlari bilan o‘zaro hamkorligi to‘g‘risidagi nizom»;
- «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi va Kuzatuv kengashining Yagona aksiyadorga beradigan hisobotlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizom».

7. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati Boshqaruviga hamda ijrosini nazorat qilish vazifasi Kuzatuv kengashiga topshirilsin.

**Yagona aksiyador nomidan,**

“Leader Finance” MCHJ

Bosh direktori v.v.b.:

/imzo, muhr/

S. Abdullayev

*Ko 'chirma asligi to 'g 'ri:*

*T.Nurmuratov*

